

1-MODUL DAVLAT TILINI O'QITISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI, ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI HAMDA CEFR VA MILLIY O'QUV DASTURIGA MUVOFIQLIGI

Reja

Nazariy qism

1. Davlat tilini o'qitishning zamonaviy konsepsiyasi.
2. Davlat tili siyosati va uning ta'lim tizimidagi o'rni.
3. Milliy o'quv dasturida davlat tili kompetensiyalari.
4. CEFR til darajalari (A1–C2) va ularning mazmuni.
5. Davlat tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv.

Amaliy qism

1. O'quv dasturlari va darsliklarni tahlil qilish.
2. Davlat tili kompetensiyalarini CEFR deskriptorlari asosida aniqlash.

Kalit so'z va iboralar

Davlat tili, davlat tili siyosati, me'yoriy-huquqiy asoslar, ta'lim standarti, Milliy o'quv dasturi, CEFR, til kompetensiyasi, A1, A2, B1, B2, C1, C2, deskriptor, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, baholash mezonlari, o'quv natijalari, darslik tahlili.

Kirish

Davlat tilini zamonaviy talablar asosida o'qitish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda davlat tilini o'qitish jarayoni Milliy o'quv dasturi, Davlat ta'lim standarti hamda CEFR tavsiyalariga tayangan holda tashkil etilmoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur modulda davlat tilini o'qitishning zamonaviy konsepsiyasi, huquqiy asoslari hamda CEFR va Milliy o'quv dasturining o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Amaliy mashg'ulotlarda esa o'quv dasturlari va darsliklar tahlil qilinib, davlat tili kompetensiyalari CEFR deskriptorlari asosida baholanadi.

Maqsad

Ta'lim tizimida davlat tilini xalqaro standartlar asosida o'qitish, Milliy o'quv dasturi va CEFR talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu sababli pedagoglarning davlat tilini o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini puxta egallashi hamda ularni amaliyotda qo'llay olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Davlat tilini o'qitishning zamonaviy konsepsiyasi

Zamonaviy sharoitda davlat tilini (o'zbek tilini) o'qitish endi faqat grammatik qoidalarini yodlatishga emas, balki o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan. Bunda o'quvchi tilni nafaqat bilishi, balki uni kundalik hayotda, ta'lim jarayonida va ijtimoiy muloqotda erkin qo'llay olishi muhim hisoblanadi. Zamonaviy konsepsiya o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi hamda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xalqaro tajribadan foydalanishni nazarda tutadi.

Konsepsiyaning asosiy tamoyillari:

- tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatish, ya'ni til bilimi emas, til ko'nikmasi (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) ustuvor hisoblanadi;
- amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim — o'quvchi real hayotiy vaziyatlarda tildan foydalana olishi kerak;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv — har bir o'quvchining individual ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlari hisobga olinadi;
- integrativlik — til ta'limini boshqa fanlar va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish;
- CEFR talablariga mos ravishda kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

2. Davlat tili siyosati va uning ta'lim tizimidagi o'rni

Davlat tili siyosati — davlat tilining jamiyat hayotidagi mavqeini mustahkamlash, uni ta'lim, ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda keng qo'llashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

Ta'lim tizimida bu siyosat o'quvchilarda davlat tilida erkin muloqot qilish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlat tili siyosati quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- barcha ta'lim bosqichlarida davlat tilini o'qitish;
- sifatli darslik va o'quv-metodik ta'minotni yaratish;
- davlat tilida ish yuritish madaniyatini rivojlantirish;
- milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;
- jamiyatda til madaniyatini yuksaltirish.

3. Milliy o'quv dasturida davlat tili kompetensiyalari

Milliy o'quv dasturida davlat tilini o'qitish kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning tilni real hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Kompetensiyalar sinflar kesimida bosqichma-bosqich murakkablashib boradi.

Asosiy kompetensiyalar:

- tinglab tushunish;

- gapirish (dialog va monolog);
- o'qib tushunish;
- yozma nutq;
- lingvistik kompetensiya;
- sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiya.

Mazkur kompetensiyalar o'quvchining kundalik, ijtimoiy va ta'limiy vaziyatlarda davlat tilidan samarali foydalanishiga xizmat qiladi.

4. CEFR til darajalari (A1–C2) va ularning mazmuni.

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) — chet va ikkinchi tillarni o'qitish hamda baholash uchun ishlab chiqilgan xalqaro tizim bo'lib, tilni egallashning oltita darajasini belgilaydi. Ushbu tizim o'quvchilarning til kompetensiyasini yagona mezon asosida baholash imkonini beradi.

Daraja	Nomi	Tavsifi
A1	Boshlang'ich	Oddiy, kundalik iboralarni tushunish va ishlatish
A2	Elementar	Sodda, tanish mavzularda qisqa muloqot qilish
B1	O'rta (pastki)	Tanish mavzularda mustaqil fikr bildirish
B2	O'rta (yuqori)	Murakkabroq matnlarni tushunish, erkin muloqot
C1	Yuqori	Til vositalaridan erkin va aniq foydalanish
C2	Mukammal	Ona tilida so'zlashuvchi darajasida tilni bilish

5. Davlat tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv.

Kompetensiyaviy yondashuv — bu ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy modeli bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchida nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni turli hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llash kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Mazkur yondashuvda o'quvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida mustaqil fikrlaydi, muammolarni hal qiladi, muloqotga kirishadi hamda egallagan bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda qo'llaydi. O'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi (fasilitator) rolini bajaradi.

Davlat tilini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchining tinglash, o'qish, gapirish va yozish ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga qaratiladi. Mashg'ulotlar real hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar davlat tilidan kundalik muloqotda, ta'lim jarayonida va ijtimoiy munosabatlarda erkin foydalanishga o'rgatiladi. Bunda turli kommunikativ

topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, juftlik va guruhli ishlash metodlari keng qo'llaniladi.

Mazkur yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta'lim natijasi «nimani biladi» emas, balki «nimani qila oladi» tamoyili asosida baholanadi;
- o'quvchi bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltiriladi;
- mashg'ulotlarda interfaol metodlar, loyihaviy va muammoli topshiriqlardan foydalaniladi;
- tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari o'zaro uyg'un holda rivojlantiriladi;
- baholash kompetensiyalar va kutilayotgan o'quv natijalari asosida amalga oshiriladi;
- fanlararo integratsiya va hayotiy tajribaga tayangan holda ta'lim tashkil etiladi;
- o'quvchining mustaqil fikrlashi, tanqidiy va ijodiy tafakkuri, muloqot madaniyati hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi;
- o'quvchining yoshi, qiziqishi va individual imkoniyatlari hisobga olinib, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhiti yaratiladi.

Amaliy qism

1-amaliy mashg'ulot. O'quv dasturlari va darsliklarni tahlil qilish.

Ishtirokchilarda milliy o'quv dasturi hamda davlat tili darsliklarini zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish, ularning mazmunini CEFR talablari bilan taqqoslash va kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ifodasini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Bajarish tartibi

1. Ishtirokchilar 3–5 kishilik kichik guruhlariga bo'linadi.
2. Har bir guruhga davlat tili fani bo'yicha o'quv dasturi yoki darslikdan ma'lum mavzu beriladi.
3. Guruhlar quyidagi mezonlar asosida tahlil olib boradilar:
 - mavzuning maqsadi va kutilayotgan natijalari;
 - shakllantiriladigan kompetensiyalar;
 - tinglash, gapirish, o'qish va yozish faoliyatlarining aks etishi;
 - kommunikativ yondashuv elementlari;
 - interfaol topshiriqlar va baholash usullari.
4. Guruhlar o'z xulosalarini jadval yoki taqdimot ko'rinishida taqdim etadilar.
5. Yakunda umumiy muhokama o'tkaziladi.

Muhokama uchun savollar

1. O'quv dasturida qaysi kompetensiyalar ustuvor hisoblanadi?

2. Darslik topshiriqlari kommunikativ yondashuv talablariga qanchalik mos?
3. Mavzuda o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?

4. Darslikni takomillashtirish bo'yicha qanday takliflar berish mumkin?

Kutilayotgan natija

Ishtirokchilar davlat tili o'quv dasturi va darsliklarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tahlil qilish hamda ularning kuchli va takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

2-amaliy mashg'ulot. Davlat tili kompetensiyalarini CEFR deskriptorlari asosida aniqlash

Ishtirokchilarda davlat tili faniga oid o'quv natijalarini CEFR deskriptorlari bilan bog'lash, til kompetensiyalarini aniqlash va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Bajarish tartibi

1. Ishtirokchilar kichik guruhlariga bo'linadi.
2. Har bir guruhga davlat tili fanidan o'quv mavzusi yoki topshiriq namunasi taqdim etiladi.
3. Guruhlar quyidagi ishlarni bajaradilar:
 - topshiriq orqali rivojlantiriladigan til ko'nikmalarini aniqlaydilar;
 - CEFR darajasini (A1, A2, B1 va boshqalar) belgilaydilar;
 - mos "Can do" (Qila oladi) deskriptorlarini tanlaydilar;
 - topshiriqni baholash mezonlarini ishlab chiqadilar.
4. Har bir guruh o'z ishlanmasini taqdim etadi va boshqa guruhlar bilan muhokama qiladi.
5. Trener yakuniy xulosa beradi hamda CEFR deskriptorlaridan amaliy foydalanish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Muhokama uchun savollar

1. Ushbu topshiriq qaysi CEFR darajasiga mos keladi?
2. O'quvchi mazkur topshiriqni bajarish orqali qanday kompetensiyalarni namoyon etadi?
3. Baholash mezonlarini yana qanday takomillashtirish mumkin?
4. CEFR deskriptorlaridan dars rejalashtirishda qanday foydalanish mumkin?

Kutilayotgan natija

Ishtirokchilar davlat tili kompetensiyalarini CEFR deskriptorlari bilan moslashtirish, o'quv natijalarini aniqlash hamda kompetensiyaga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'ulomov A., Yuldashev M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent, 2021
3. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.